



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING BADIY TAHLILI

Guliston davlat pedagogika inistituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi Farangiz Xolmurodova

Annotatsiya: Frazzeologiya - bu frazeologik birliklarining semantik va tuzilish xususiyatlarini o'rganuvchi, ularning til tizimida paydo bo'lish sabablarini va nutqda qo'llanish xususiyatlarini o'rganuvchi til fanining maxsus tarmog'i.

"Frazzeologiya" atamasi ikki yunoncha so'zdan tuzilgan: fraza- "ifoda, nutq figurasi" va logos- "ta'lim".

Frazzeologik birliklar - umumiy yaxlit ma'nosi qisman ularning tarkibiy qismlarining semantikasi bilan bog'liq bo'lgan, majoziy ma'noda ishlatiladigan turg'un birikmalar: boshi berk ko'chaga yeting, kalit bilan uring, oqim bilan boring, uni o'z qo'lingizga oling, tilingizni tishlang kabi.'

Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoirdir. Shoir o'z she'rlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi bo'lgan xalq og'zaki ijodi motivlari xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uyg'unlikda idrok etiladi.

'Sayfullayeva.R., Mengliyev.B., Boqiyeva.G., Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent. : FTM, 2009.

Annotation: phraseology is a special branch of language science that studies the semantic and structural features of phraseological units, studies the causes of their appearance in the language system and the features of their application in speech.

The term "phraseology" is constructed from two Greek words: phraseology - "expression, figure of speech" and logos - "education".

Phraseological units-stationary compounds, the general holistic meaning of which is partly associated with the semantics of their components, used figuratively: reach a dead end, hit with a key, go with a stream, take it into your own hands, like bite your tongue.'

Abdullah Oripov is a poet who has truly received the admiration and recognition of the people. In his poems, the poet chooses a form suitable for artistic content. The motives of



folk oral creativity, in which the folk spirit in artistic creation is a companion of mankind for several thousand years, are perceived in harmony with the leading principles in folk artistic thinking.

Saifullaeva.R., Mengliev.B., Boqieva.G., The current Uzbek literary language.- Tashkent. : FTM, 2009.

Kalit soʻzlar : Frazologik birlik, turgʻun birikma, leksik-semantik birlik, "Mehrga muhtoj qalblar kuychisi", frazema, komponent, "idiomatik iboralar".

Keywords: Phraseological unit, stationary compound, lexical-semantic unit, "singer of Hearts in need of love", phraseological, component, "idiomatic expressions".

Kirish. Frazologik birliklar : maxsus ma'lumotnomalar- frazeologik lugʻatlarda xizmat qiladi. Ular, rasmiy ish, ilmiy uslublarda ham qoʻllaniladi. Bular stilistik jihatdan neytral burilishlar yoki ifodasiz kitobiy iboralar : olovga choʻmdirish, koʻp narsani orzu qilish, burchak toshi, tekislikda boʻlish, belkurakni chaqirish kabilar misol boʻla oladi.

Frazologik birliklar: ular soʻzlarning turgʻun birikmalarini, nutqning burilishlarini, masalan : " chelaklarni urish", " burnini osib qoʻyish ", " miya yuvuvchidan soʻrash "...

Frazologik birliklar deb ataladigan nutq navbati ma'no jihatdan boʻlinmaydi, ya'ni uning ma'nosi tarkibidagi soʻzlarning ma'nolaridan qoʻshilmaydi. U faqat yaxlit leksik birlik sifatida ishlaydi.

Frazologik birliklar - tashqi omonimlarga ega boʻlishi mumkin, ya'ni ular bilan kompozitsiyada mos keladigan toʻgʻridan toʻgʻri (metaforik boʻlmagan) maʼnoda ishlatiladigan iboralar: Biz . Ular besh kun davomida quyi oqim boʻylab suzishlari kerak edi. Shu qadar chuqurchaga tashlandiki, tilimni tishlab ogʻriqdan azob chekdim, kabilar misol boʻla oladi

Frazologizm lugʻaviy birlik boʻlganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil soʻz kabi harakat qiladi - bir gap boʻlagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin boʻyniga qoʻyilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P. Tur.) 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. (S.Zun.) 3. Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda - sonda roʻy berib turibdi. 4. Kovushini togʻrilab qoʻyish kerak. (As.Mux.) 1- va 2- gaplarda frazeologizmlar gap markazi - kesim mavqeyida, 3-



gapda so‘z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.⁵

Farangiz_ Shuhratovna, [05.06.2023 22:45]

Asosiy qism. Shuningdek Abdulla Oripov she'rlarida frazeologik birliklardan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Birinchi muhabbatim she'rida buni guvohi bo‘lamiz,

Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda,

Zuhra yulduz miltirab xira xanda otganda ,

Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg‘otganda,

Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,

Eslab hayolga toldim, birinchi muhabbatim. ... kabi misralari bilan boshlanuvchi she'rida , frazeologik birliklarining ma'no ko‘chishi yo‘li bilan hosil bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Xususan ,o‘zbek tili leksikologiyasida buni metafora usuli bilan ma'no ko‘chishi deb atasak, badiiy adabiyotimizda esa istiora deb hisoblaymiz. Ya'ni oy bo‘zarib botganda, Zuhra yulduz miltirab xira xanda otganda jumllarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

"Birinchi muhabbatim" she'ri inson qalbidagi bebaho ma'naviy javhar bo‘lgan hisni bayon qiladi. She'rda visolga erishmagan oshiq nolasi, g‘aflatda qolib, muhabbat tuyg‘usiga beparvo bo‘lgan lirik qahramonning ichki dard va kechinmalari o‘z aksini topgan. Shoir ushbu she'rini 24 yoshida, ya'ni 1965- yilda yaratilgan. She'r aruz vaznida yozilgan bo‘lib, qofiyalanishi a- a- a- b- b . She'r yozilish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Abdulla Oripovni yaqindan tanigan, jurnalist Ismat Xushev shunday deydi:

Abdulla akaning bir paytlar aytishlari bo‘yicha Toshkentda Islom dini akobirlaridan biri bo‘lmish ulug‘ bir zotning qizlari bo‘lgan. Abdulla aka o‘sha go‘zal qizni yaxshi ko‘rib qolgan. Lekin u qizga yetisha olmaganlar. Qiz boshqasiga turmushga chiqqan. Va bu she'r mana shu muhabbat uchun yaratilgan. Bu bir taxmin. Boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, she'rda shoirning Allohga bo‘lgan go‘zal muhabbatini ham ko‘rishimiz mumkin. Dildagi ohim mening birinchi muhabbatim,

⁵ . G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘zbek tili frazeologiyasi.- T. : O‘qituvchi,1987.



Yolg'iz Oллоhim mening birinchi muhabbatim⁶...

Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm : ko'ngli bo'sh, enka - tinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq

va hakazo. Gap tipidagi frazeologizm " gap kengaytiruvchisi + kesim" qolipi mahsuli : istarasi issiq, ichi qora, labi - labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, tepa sochi tikka bo'lmoq

va h.k. Ayrim leksik birliklar frazeologizmning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir : dardisar, toshbag'ir, boshog'riq. Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri - frazeologizm.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub. Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar : me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, o'pkasini cho'pga ilmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, azob chekmoq, ensasi qotmoq, ko'ngliga qo'l solmoq.

Sifat turkumiga mansub frazeologizm : ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi bejo, dili siyoh, kayfi buzuk, chehrasi ochiq, vijdoni toza, tumshug'i baland.

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: ipidan - ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan - sirigacha, ha- hu deguncha.

So'z- gaplarga mansub frazeologizm: turgan gap, shunga qaramay, katta gap.

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan.⁷

Shoirimiz Abdulla Oripov she'rlarida frazeologik birliklar, asosan, quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

1) voqea- hodisani obrazli ifodalash uchun: ko'pgina frazeologik birliklar, konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi. Shaxs- predmet, voqea- hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi.

⁶ Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Abdulla Oripovning Birinchi muhabbatim she'ri tahlili. fayllar.org.-Toshkent, 2019.-87-95b

⁷ Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati.- Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati, 1992.- B. 23 - 311.



Masalan: 1. Hanuz biri ikki bo‘lmagan eldan,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.

Bag‘ri xun, toleyi kulmagan eldan,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh. ("Ka'batulloh" she'ridan).

2. Sirtdagisin ko‘rib turibsan har on,
Ichdagi olangdan ogoh bo‘l inson.

3. Sayr etdim Kioto ko‘chalarida,
O‘y surdim yomg‘irli kechalarida.

Sira parvo qilmay o‘tar umrga,
Jon berib turibsan toshga, temirga.
("Yapon" she'ridan).

4. Non degan farzandning dardli xitobi,
Goh uni tiriklay chohlarga tiqqan.

Bardoshli umrning zaqqum zardobi,

Sochlari qirovdek ko‘pirib chiqqan. ("Otlar ilgida zamon bilan vaqt" she'ri)

She'rda tiriklay go‘rga tiqqoq iborasi tarkibidagi go‘r so‘zi choh so‘zi bilan almashtirib
qo‘llangan. Yoki yana bir misolda ko‘ramiz:

Yaxshining keragi kamdir olamda,

Yomonlarning dasti uzun bo‘lsa gar. Ushbu misralarda ortiq darajada imkoniyatga ega
ma'nosini beruvchi, "qo‘li uzun" iborasidagi "qo‘l" so‘zi o‘zining sinonimi bilan
almashtirilgan. Ibora ma'nosi go‘zal badiiyat kasb etgan.⁸

Yana bir she'rida:

Quloq soling menga, yaxshi qiz biroz
Dilimni ochmoqchi bo‘lyapman sizga,
Tunov kun bir do‘stim meni dabdurust

⁸ Abdulla Oripov. Talosh pallasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.3-9b



Aybladi sevgisizlikda."(Sevgisiz odam" she'ridan). Ushbu misralarda ikki ibora qo'llangan. Birinchisi " quloq solmoq" iborasi bo'lib, tinglamoq ma'nosini beradi, ma'nodoshi "quloq bermoq".Ikkinchi ibora "dilini ochmoq" iborasi, ko'nglini ochmoq", yuragini ochmoq, iboralariga variantdosh sifatida qo'llanilgan.

Tayanch komponenti fe'l bilan ifodalangan frazeologizmlar:

Tasalli topmassan na do'st, na maydan.

Sekin ostonangdan o'tlar cho'zar bo'y."(Qadr" she'ri).

Magar bo'ri ekan, odamga odam,

Bir -birin boshini yegay damo- dam."(Ka'batulloh" she'ridan).

Hazratim, aslida sizga ham qiyin,

Somelar ko'pincha qilishar o'yin.

Avval ortingizda namoz o'qishar,

Qatiqqa suv qo'shib sotishar keyin."(Imon" she'ridan).

Aytish joizki, tarkibida ayrim so'zshakl bilan ifodalangan ega bo'lagi bo'lsa, shunday frazeologizm qurilishiga ko'ra gapga teng bo'ladi. Gapga teng iboralar, asosan, fe'l turkumiga tegishli bo'ladi. O'zbek tili frazeologik tizimidagi frazeologik birliklarining asosiy qismini fe'l frazeologik birliklari tashkil etishi ma'lum. Bunday frazemalar ikki yoki undan ortiq leksemalardan tarkib topib, asosiy tayanch komponent esa ot (keng ma'noda) leksema bilan ifodalanadi.'

Men quyosh yuzlimga deb, tun- kechalar berdim yurak,

Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman."(Ketmoqdaman" she'ridan).⁹

Abdulla Oripov- Mehrga muhtoj qalblar kuychisi. Abdulla Oripov she'rlarining eng katta mavzularidan biri Matyoqub Qo'shjonov yozganidek, " katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan insoniy mehrdir". Shoirning " Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" nomli she'rida ana shu mehrning tirik haykali farrosh kampir obrazini yaratadi. Beshta qit'adan tanlab olingan, olamdagi barcha ilmlarni mujassam etgan olimlar

⁹ Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Sukut nutqiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida //So'z san'ati xalqaro jurnali.- 2020.- Toshkent. 3.- N_ w.w.w.tadqiqot.uz.



yecholmagan jumboqni farrosh kampir bir zumda hal qiladi- qo'yadi. Kampir samoviy mehmonga somon yo'lini ham alfa-yu betalarni ham ko'rsatib o'tirmaydi. Balki o'zining onalik qalbidagi samimiy mehrini izhor qiladi. U samoviy mehmonning "sap- sariq rangi zardini" ko'rib shunday deydi:

Voy bechora bolagina,

Dard zaptiga olibdi-ku.

Holdan toyib boshqa ko'zi,

Yumilib ham qolibdi-ku.

Shunday qilib farrosh kampir "rangini ko'r somon deysan, suvdanmikan yo o'tdan". deya girgitton bo'ladi. Uning "tikanakday tikka o'sgan sochginasini silab" unga ichgani suv ham tutadi. Shu payt mo'jiza ro'y beradi. Kampirning mehribonligidan samoviy mehmonning " bittagina ko'ziga duvva- duvva yosh" keladi. Bu she'r o'zining afsonaviy obrazlar bilan ehtimol, minglab yillar insoniyatga mehrdan saboq berar, Axir, mehr zamingagina emas, insongagina emas, balki samoga ham zarurdir. Agar hozirgi kunimizda insoniyat samoga mehrini emas, qahrini armug'on etayotgani, imperialistik doiralarda kosmosdan harbiy maqsadlarda foydalanishga harakat qilayotganini hisobga olsak, shoirning mazkur she'ri naqadar ulkan ijtimoiy xarakterga kasb etishini yanada yaqqolroq his etamiz. Afsuski, taraqqiyot behad va benihoyat tez bo'lgan bizning asrimizda o'sha "katta harf bilan yozilishi kerak bo'lgan mehr" ning bozori kasod bo'lib borayotgani hech kimga sir emas.' Albatta, bu hol birinchi navbatda shoir qalbini bezovta qilishi ham shubhasizdir.

Shoirning keyingi paytlarda yozgan she'rlarida mehrga tashnalik hissi yanada o'tliroq, yanada jozibaliroq kuylanadi. Uning "Qirq yosh" nomli she'rida mehr haqidagi, mehrga tashnalik haqidagi quyidagi misralarni o'qigan she'rxon qalbi larzaga tushadi:

Kim alam chekmabdi umrida bir bor,

U meni anglamas, anglamas zinhor.

Kim haqqa tashnadir, kim mehrga zor,



Men unga umrimni etgumdir fido. Mehr so‘zi qadimda quyosh ma'nosini bildirar ekan. Mehrga muhtoj qablarning mumtoz kuychisi bo‘lgan Abdulla Oripov olamda mehr-u muhabbatning quyosh nurlari kabi serob bo‘lishini tilaydi.¹⁰

Muhokama va Natijalar bo‘limi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya asoschisi filologiya fanlari doktori professor Shavkat Rahmatullayev hisoblanadi. U o‘zining qator ilmiy tadqiqotlarida iboralarning til hodisalari bilan o‘xshash va farqli xususiyatlari va grammatik tabiatini o‘rgandi, ilk bor o‘zbek frazemalarining izohli lug‘atini tuzdi. Bu lug‘atda iboralarning ma'nosini izohlab bergan. Uning o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarga xos grammatik - leksik, sematik xususiyatlarga bag‘ishlangan bir qancha maqolalari, qo‘llanmalari va monografiyalari e'lon qilingan. Jumladan, " O‘zbek tilida frazeologik birliklarining asosiy semantik turlari haqida"(1956), " Sintaktik tahlilda frazeologik birliklar ustida ishlash"(1956), " Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi o‘zlashgan frazeologik birliklar haqida"(1957), " Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar grammatik qurilishining o‘zgarishi haqida"(1963), "Fe'l frazeologik birliklarda moslashuv"(1964), "O‘zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "Nutqimiz ko‘rki"(1970),kabi tadqiqotlari Shavkat Rahmatullayevning haqli ravishda mamlakatimizda o‘zbek frazeologiyasini o‘rganishning asoschisiga ko‘tardi. Shuningdek, Sh.Almamatova " O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili" mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan.Bu dissertatsiyada frazemalarining komponent tahlili, xususan, frazemalarining ifodaviy va mazmun jihatidan shakllantirishdagi komponentlarning o‘rni, o‘z va paradigmadik shakli, tarkibi, varinatlanishi kabi masalalarni tadqiq etishni asosiy maqsad qilgan.

"Tilshunoslikka kirish" kurslarida "idioma" ga ta'riflar beriladi, ya'ni frazeologik birlik turlaridan biri : "Idiomatik iboralar muayyan tillarga xos iboralardir. Ulardan foydalanishda ular ajralmas va birlashtirilgan ma'noga ega bo‘lib, odatda boshqa tillarga aniq o‘tishga qodir emas va tarjimada shunga o‘xshash stilistik rangni almashtirishi talab

¹⁰ https://fayllar.org/Abdulla_Oripov_she'riyati.



qiladi. L.A.Bulaxovskiy idiomalarni frazeologik birliklardan ajratish kerak, deb hisoblaydi. R.A.Budagov idiomalarni frazeologik birikmalar bilan aniqlaydi. Professor A.A.Reformed erkin bo‘lmagan so‘z birikmalarining barcha turlarini leksiklashgan birikmalar deb ataydi va ularni idiomalarning umumiy tushunchasi ostiga oladi. Professor I. Ozhegovning fikricha, bir ma'noni egallash va so‘zlarning butun ma'nolari uchun sintaktik aloqasining ahamiyatsizligi iboralarni ma'no yaxlitligi sintaktik bo‘linishida ustunlik qiladigan frazeologik birlikka aylantiradi.¹¹

Ingliz tilida frazeologik birliklarni rus tilshunosi Kunin boshqa til birliklardan quyidagicha farqlaydi:

- turg‘unlik ikki yoki undan ortiq leksemadan yasalishi ;
- tilda tayyor holda saqlanib, nutqqa shundayligicha olib kirilishi ;

Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziq boshlagan bo‘lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g‘arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo‘llanilgan. U "Fransuz stilistika" asarida odatiy birikmalar va frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. Uning bu qarashlari ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lsada, frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini asoslab bergan edi.¹²

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, A.V Kuninning nuqtai nazaridan yanada oqilona ko‘rinadi, chunki frazeologik birliklarining yaxlitligini faqat uning ma'nosini tarkibiy so‘zlarning ma'nolari bilan taqqoslash, shuningdek, u mavjud bo‘lgan kontekstning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash mumkin.

Frazeologizmlar muhim lingvistik birlik bo‘lib, ular boshqa birliklardan strukturaning o‘tkazmasligi bilan ajralib turadi. Iboralar nafaqat so‘zlashuvda, balki badiiy adabiyot va

¹¹ Кунин.А.Б.Курс фразеологии современного английского языка.-М. 1972. 466с...[4]. (O‘zbek tiliga tarjima qilib olindi).

¹² To‘rebayevna, M.Z.(2022) TYPES OF TRANSLATION, Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 721- 723.



publitsistikada ham qo‘llash yo‘llari xilma-xil. Tilimizning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazemalar bilan boyib boradi.¹³

O‘zbekiston Qahramoni xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla Oripovning el qalbiga yo‘l topib uning meh-u muhabbatiga sazavor bo‘lganligining ham sababi shunda. Abdulla Oripov ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotida balki umumturkiy adabiyot kontekstida o‘ziga xos mavqega ega. Mazkur tadqiqot ichida ana shu betakrorlikni, o‘ziga xoslikni, shoir mahoratini namoyon qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi til vositalarini qay darajada tadqiq etishiga harakat qilingani uning dolzarbligini ifodalaydi. Abdulla Oripov she'riyati jamiyatni tutib turgan barcha qonun- qoidalar, zamondoshlarining muammolari turli obraz va badiiy san'atlar vositasida mohirona aks ettirgan. Har tong yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqarosi shoirning "O‘zbekiston madhiyasi" she'rini ong-u shuuri bilan, yurak qo‘ri-yu Vatanga bo‘lgan muhabbati jo‘rligida tinglaydi. Uning har bir misrasida millat ruhi ifodalangani sababidan ham, ko‘zlarimizda faxr yoshi sizadi. Shoirning abadiy tirik ekanligini yana bir bor his etamiz.¹⁴

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati : 2.

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Yo‘ldosheva D.N. "Hozirgi o‘zbek adabiy tili." - Toshkent, 2010. Darslik. 115-116b.
2. G‘ulomov A. Asqarova M. "Hozirgi o‘zbek tili. O‘zbek tili frazeologiyasi." - T.: O‘qituvchi, 1987.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. - Toshkent. : "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019.
4. Bekiyeva, M., (2020). Pedagogik mahoratni shakllantirishning muhim xususiyatlari. 3-7(71). C, 233-241. <https://w.w.w.elibrary.ru/item.asp?id=45747276>.

¹³ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Sh. Rahmatullayev. "O‘qituvchi". Toshkent. 1978.

¹⁴ Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. - Toshkent.: Yosh gvardiya nashriyoti. 1988.



5. Rahmatullayev Sh.O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati.-T.:Qomuslar bosh tahririyati,1992.-b.23-311.
6. Hasanxon Jamolxonov/ Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent. : "Talqin",2005,-272b.
7. Кунин.А.Б Курс фразеологии современного английского языка. -М.1972.466с...[4].
8. To‘rebayevna,M.Z.(2022)TYPES OF TRANSLATION, Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3(6).721-723.

